

SO‘Z BIRIKMASI SINTAKSISI YUZASIDAN MAVJUD BILIMLAR

TAVSIFI: TAHLIL VA TAKLIFLAR

Egamova Gulruxsor Abduvali qizi

TMC instituti “Pedagogika va psixologiya”kafedrasi o`qituvchisi

Abdullayeva Xafiza Qudratilla qizi

TMC instituti “Boshlangich ta’lim” yo`nalishi 2-kurs talabasi

Tayanch so‘zlar: sintaksis, sintaktik bilimlar, so‘z birikmasi, gap bo‘laklari, bosh bo‘laklar, ikkinchi darajali bo‘laklar, ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol.

Ключевые слова: синтаксис, синтаксическая знания, словосочетание, члены предложения, главные члены, второстепенные члены, подлежащее, сказуемое, дополнения, определение, обстоятельство.

Key words: syntax, syntactic knowledge, phrase, parts of speech, main speech patterns, secondary speech patterns, subject, verb, object, the attribute, adverbial modifiers.

Ma’lumki, nutqda har bir grammatik birlik boshqasi bilan bog‘liq holda ma’lum bir ma’no ifodalashga xizmat qiladi. Bir gap tarkibidagi bir-necha so‘zlar bir-biri bilan bog‘lanmasdan turib vazifa bajara olmaydi. Gap tarkibidagi ma’lum so‘zlar o‘zaro ohang, ma’no va grammatik jihatdan bog‘lanib, so‘z birikmalarini hosil qiladi. So‘z birikmasi sintaksisi yuzasidan turli adabiyotlarda turlicha fikrlar ilgari surilgan. Jumladan, M. Hamrayev va boshqalarning umumiyligi muallifligi ostida chop etilgan “Ona tili” o‘quv qo‘llanmasida shunday ta’rif beriladi: “Ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘z va so‘z shakllarning noprifikativ tobe aloqasi asosida birikishidan hosil bo‘lgan bog‘lama so‘z birikmasi deyiladi”.¹

B. O‘rinboyevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” o‘quv qo‘llanmasida quyidagicha keladi: “So‘z birikmasi sintaktik ta’limotning tarkibiy qismi bo‘lib, bunda so‘zlarni o‘zaro aloqaga kirituvchi vositalar, so‘zlarining o‘zaro bog‘lanish usullari, so‘z birikmalari va ularning tiplari o‘rganiladi”.

¹ M.A.Hamrayev va boshqalar. “Ona tili”. Toshkent – 2008.



M. Hamrayev tomonidan tayyorlangan ma'lumotnomada esa shunday deyilgan: "So'z birikmasi ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning ma'no, grammatik va ohang jihatidan birining boshqasiga tobe bo'lib, bog'lanishidan hosil bo'lgan birlik. M: Charm qo'lqop, baland bino".²

M. Mirzayev va boshqalarning umumiyligi ostidagi chiqarilgan "O'zbek tili" qo'llanmasidagi ta'rif yuqoridagilardan biroz farq qiladi. Unda shunday keltiriladi: "Tushunchalar orasidagi turli munosabatlarni ifoda qilish uchun grammatik jihatdan o'zaro birikkan ikki va undan ortiq so'z so'z birikmasi deyiladi".³

Umuman olganda, yuqoridagi fikrlarning barchasi bir umumiyligi ma'noga olib keluvchi ta'riflar bo'lib, so'z birikmasini turli tomondan tahlil qiladi. Bundan kelib chiqadiki, so'z birikmasi sintaksis bo'limining eng muhim ikki tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, bunda ikki va undan ortiq mustaqil so'zlarning o'zaro bog'lanishi, tasnifi, ularni bog'lovchi vositalar va ularning bog'lanish usullari o'rganiladi. Shuningdek, ushbu bo'limda so'z birikmalarining so'z, qo'shma so'z va gap bilan o'xshash hamda farqli tomonlari haqida ham bilimlar beriladi.

So'zlarning o'zaro aloqaga kirishib, so'z birikmasi hosil qilishi uchun bir qancha talablar mavjud bo'lib, bular quyidagilardir:

- 1) so'z birikmasi hosil bo'lishi uchun ikki va undan ortiq mustaqil so'zlarning mavjud bo'lishi;
- 2) ushbu so'zlar ohang, ma'no va grammatik jihatdan aloqaga kirisha olishi;
- 3) mavjud qurilmani ma'lum nutq birligidan ajratib olinganda ham o'z ma'nosini yo'qotmasligi;
- 4) so'z birikmasi tarkibidagi so'zlar birgalikda ma'lum vazifa bajara olishi;
- 5) so'z birikmasi tarkibidagi so'zlar biri boshqasiga hokim yoki tobe munosabati orqali bog'langan bo'lishi zarur.

M. Hamrayevning fikricha, "So'z birikmalarini quyidagi xususiyatlari asosida tasnif qilinadi:

1. So'z birikmalarini qismlarining grammatik tabiatiga ko'ra.
2. So'z birikmalarining tuzilishiga ko'ra.

² M.A.Hamrayev. "Ma'lumotnomasi". Toshkent – 2009.

³ M.Mirzayev. "O'zbek tili". Toshkent - 1987.



So‘z birikmalari qismlarining grammatik tabiatiga ko‘ra tasnif qilinganda, hokim a’zoning qaysi so‘z turkumidan ekanligi, tobe a’zoning sintaktik vazifasi asosga olinadi.⁴

So‘z birikmalarining tuzilishiga ko‘ra tasnifi B. O‘rinboyevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” o‘quv qo‘llanmasida quyidagicha berilgan: “So‘z birikmalari tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1. Sodda so‘z birikmalari
2. Murakkab so‘z birikmalari.

Sodda so‘z birikmalari ikki mustaqil, to‘liq ma’noli so‘zlarning leksik-semantik va grammatik jihatdan birikuvidan paydo bo‘ladi va bir butun murakkab ma’noni ifodalaydi: qizil olma, mening Vatanim, yaxshi kitob, ishga bormoq kabilar.

Murakkab so‘z birikmalari uch va undan ortiq so‘zlarning leksik-semantik va grammatik jihatlardan o‘zaro aloqaga kirishishlaridan tashkil topadi. Murakkab so‘z birikmalari sodda so‘z birikmalarining kengayishidan paydo bo‘ladi: bayroq-yashil bayroq, yangi yashil bayroq, hilpirayotgan yangi yashil bayroq kabilar”.⁵

Ammo bu borada M. Hamrayevning fikri tushunarliroq va asosliroqdir, ya’ni u so‘z birikmasi haqida shunday deydi:

“So‘z birikmalari tuzilishiga ko‘ra 2 xil bo‘ladi:

- 1) oddiy so‘z birikmalari;
- 2) murakkab so‘z birikmalari.

Oddiy so‘z birikmasi. So‘zshakl bilan so‘z (leksema)ning yoki ikki so‘zshaklning bog‘lanmasi oddiy so‘z birikmasi hisoblanadi: keng dala, tekisroq yo‘l, tinchlikka da’vat qilmoq, davlatlarning hamdo‘stligi, maktab hovlisi. Biror qismi frazeologik ibora yoki murakkab tushunchani bildiradigan turg‘un birikma bilan ifodalanadigan so‘z birikmasi ham oddiy so‘z birikmasiga mansub bo‘ladi. Masalan: yulduzni benarvon uradigan odam, Fanlar akademiyasi institutlari kabi.

Murakkab so‘z birikmasi. Bunda birikmaning qismlaridan biri yoki har ikkisi so‘z birikmasi bilan ifoda etiladi. Masalan, mehnat qilishni sevadigan odam, odamlarga xayrixoh bo‘lgan kishi kabi so‘z birikmalarining tobe qismi («mehnat qilishni sevadigan», «odamlarga xayrixoh bo‘lgan») so‘z birikmasi shaklida qo‘llanib, hokim so‘zga bitishuv yo‘li bilan bog‘langan. Murakkab so‘z birikmasining biror

⁴ M.A.Hamrayev va boshqalar. “Ona tili”. Toshkent – 2012.

⁵ B. O‘rinboyev. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” – Samarqand - 2001.



qismi, ko‘pincha tobe qismi predikativ birlik, predikativ bog‘lanma bilan ham ifodalaniishi mumkin: “qiliqlari yoqimli bola”, “ota-onalarimiz bergen nasihatlar” kabi birikmalarning tobe a’zosi (“qiliqlari yoqimli”, “ota-onalarimiz bergen”) gapga teng qurilma, ya’ni predikativ birlik, predikativ bog‘lanma bilan ifodalangan”.⁶ Bundan anglashiladiki:

1. Murakkab so‘z birikmasi hosil bo‘lishi uchun, avvalo oddiy so‘z birikmasi mavjud bo‘lishi kerak.
2. Murakkab so‘z birikmasi tarkibida ham oddiy so‘z birikmasidan kamida bitta ishtirok etadi.
3. Oddiy va murakkab so‘z birikmalarining farqlanishi ular tarkibidagi so‘zlar soniga bog‘liq emas, ya’ni so‘zlar soni ikkidan ortiq bo‘lsa ham, u murakkab so‘z birikmasi hisoblanmasligi mumkin.

Shuningdek, so‘z birikmalari hokim yoki tobe so‘zlarning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganligiga ko‘ra tasniflanishi ham mumkin. Buni M.Hamrayev o‘zining “Ona tili” o‘quv qo‘llanmasida “so‘z birikmalari qismlarining grammatic tabiatiga ko‘ra tasniflanishi” deb ko‘rsatadi va uni quyidagi tartibda guruhlarga ajratadi: “So‘z birikmalari **hokim qismning qaysi so‘z turkumidan ekanligiga ko‘ra** quyidagi turlarga ajratiladi:

- 1) otli birikma;
- 2) fe’lli birikma;
- 3) sifatli birikma;
- 4) ravishli birikma;
- 5) modal so‘zli birikma.

Bunda hokim qismlar qaysi turkumdan ekanligi, ya’ni morfologik jihatdan qaralgan bo‘lsa, tobe qismlar bajaradigan vazifasi, ya’ni sintaktik jihatdan tasnif qilingan.

B.O‘rinboyev esa o‘zining “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (2001) qo‘llanmasida “komponentlarning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganligiga ko‘ra” deya quyidagicha tasniflaydi: “So‘z birikmalari **hokim komponentlarning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganligiga ko‘ra** quyidagilarga bo‘linadi:

1. **Oqli so‘z birikmalari.** Buning hokim bo‘lagi vazifasida quyidagi so‘z turkumlari keladi:
 - a) ot keladi: katta bino, ko‘p odam;
 - b) olmosh keladi: boradigan hech kimim;

⁶ M.A.Hamrayev va boshqalar. “Ona tili”. Toshkent – 2008.



- c) otlashgan sifat keladi: jangda zo'ravon;
 - d) sifatdosh keladi: g'olib chiqqanlar mukofotlandi.
2. **Fe'lli so'z birikmalari.** Buning hokim bo'lagi vazifasida fe'l, ravishdosh keladi:
- a) sof fe'l keladi: tez o'qidi;
 - b) ravishdosh keladi: Nargiza dam olib keldi.
3. **Ravishli so'z birikmalari.** Hokim bo'lak vazifasida ravish keladi: O'tloqda bedana ko'p, dangasada bahona ko'p.
4. **Sifatli so'z birikmalari.** Hokim bo'lak vazifasida sifat keladi: Odam temirdan qattiq, guldan nozik.
5. **Modal so'z birikmalari:** O'zingda yo'q, olamda yo'q.
6. **Undovli so'z birikmalari:** Shu on qulog'imga qal'a tomondan eshitilar zaif oh".⁷

Bunda tobe qismlar bajaradigan vazifasiga ko'ra sintaktik jihatdan ham, morfologik jihatdan ham tasniflanmagan, ammo M.Hamrayevning qo'llanmasida boshqa adabiyotlarda berilmagan bir jihat bor. Bu so'z birikmalari tasnifi tarkibiga undovli birikmalarni ham qo'shganligidir. Agarda bu fikrni asosli deb qaraydigan bo'lsak, bu tasniflar sonini yana-da ko'paytirishimiz, ya'ni taqlid so'zli birikmani ham kiritishimiz mumkin bo'ladi. Masalan: Atrof sokin, faqat daraxtlar orasidan tushunarsiz shitir-shitiri eshitilib turibdi, xolos. Bu yerda **tushunarsiz shitir-shitir** taqlid so`zli birikma hisoblanib, tushunarsiz – tobe qism, shitir-shitir – hokim qism vazifasini bajarmoqda.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis". Universitet talabalari uchun darslik. Toshkent -1987.
2. M.Mirzayev. "O'zbek tili". Toshkent - 1987.
3. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent - "O'zbekiston" - 1992.
4. B. O'rionboyev. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" – Samarqand - 2001.
5. H.Jamolxonov. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". "Talqin" nashriyoti – 2005.
6. Q.Sapayev. "Hozirgi o'zbek tili". Toshkent – 2009.
7. M.A.Hamrayev va boshqalar. "Ona tili". Toshkent – 2008.
8. M.A.Hamrayev. "Ma'lumotnoma". Toshkent – 2009.
9. M.A.Hamrayev va boshqalar. "Ona tili". Toshkent – 2012.

⁷ B. O'rionboyev. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" – Samarqand - 2001.